

TIL SIYOSATI TUSHUNCHASI VA UNI AMALGA OSHIRISHDA MEDIANING KOMMUNIKATIV ROLI

Shaxobiddin Musayev

O'zJOKU mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19852737>

Annotatsiya: Muallif til siyosatini amalga oshirishda medianing nafaqat axborot tarqatuvchi, balki lingvistik me'yorlarni belgilovchi va mustahkamlovchi institut sifatidagi funksiyalarini ochib bergan. Matnda 2019–2024 yillarda O'zbekiston bosma va elektron OAVlarida davlat tili mavzusining yoritilishi dinamikasi statistik ma'lumotlar va jadvallar asosida qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar: til siyosati, davlat tili, ommaviy axborot vositalari, kommunikatsiya, lingvistik me'yor, til qurilishi, til inqirozi, media matn.

Аннотация: Автор раскрывает роль медиа в реализации языковой политики не только как источника информации, но и как института, определяющего и укрепляющего лингвистические нормы. На основе статистических данных и таблиц проведен сравнительный анализ динамики освещения темы государственного языка в печатных и электронных СМИ Узбекистана за 2019–2024 годы.

Ключевые слова: языковая политика, государственный язык, средства массовой информации, коммуникация, лингвистическая норма, языковое строительство, языковой кризис, медиатекст.

Abstract: The author highlights the functions of the media in implementing language policy, not only as an information distributor but also as an institution that establishes and strengthens linguistic norms. Based on statistical data and tables, a comparative study of the dynamics of covering the state language topic in Uzbekistan's print and electronic media from 2019 to 2024 was conducted.

Keywords: language policy, state language, mass media, communication, linguistic norm, language planning, language crisis, media text.

“Davlat tili haqida”gi qonun ijrosi haqida so'z yuritilganda parallel ravishda “Til siyosati” tushunchasi ham ishlatilishi kuzatiladi. Shuningdek, sotsiolingvistik adabiyotlarda “til siyosati”ga sinonim sifatida “til qurilishi” va “tilni rejalashtirish” atamalaridan ham foydalaniladi. Lekin “til siyosati” atamasi nisbatan faol, global bo'lib, “Davlat tili haqida”gi qonun ijrosi lokal ahamiyatga ega. “Til siyosati” ko'plab tushunchalarni o'z ichiga oladi. Har qanday davlatning zamonaviy til holati mamlakat ichidagi til siyosatining kommunikativ ahamiyatini oshiradi. Hozirgi til siyosati aholi o'rtasidagi siyosiy, lingvistik va madaniyatlararo vaziyatga ta'sir ko'rsatmoqda. Til siyosati muayyan mintaqalar va umuman davlat uchun shakllantirilishi mumkin. U til, uning usullari va faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Davlatning til siyosati – bu davlat tomonidan aholining til huquqlari va manfaatlariga, shu jumladan davlat va munitsipalitet organlarida, ta'lim, ommaviy axborot vositalarida, ishbilarmonlik munosabatlarida qo'llanadigan rasmiy tillarga nisbatan ko'riladigan chora-tadbirlar va harakatlar majmuidir¹. Til siyosatining maqsadi kontekst va jamiyat ehtiyojlariga qarab farq

¹ Sadullayeva M. Davlat tilining ijtimoiy-siyosiy jarayondagi o'rni. – URL: <https://yuz.uz/news/davlat-tilining-ijtimoiy-siyosiy-jarayondagi-orni> (murojaat sanasi: 09.12.2024).

qilishi mumkin, lekin umuman olganda, u til xilma-xilligini saqlash, ozchiliklarning lingvistik huquqlarini himoya qilish va davlat ichidagi muloqot samaradorligini ta'minlashga qaratilgan.

Bugungi kunda ushbu hodisaning ko'plab ta'riflari mavjud. Ulardan ba'zilarini ko'rib chiqish va sharhlash mumkin. Masalan, V.I.Belikov va L.P.Krisin til siyosatini "davlat tilining maqomi, uning funksiyalari, davlat tilining qo'llanishini himoya qilish bo'yicha davlatning amaliy chora-tadbirlarini belgilab beradigan"² jarayon sifatida tushuntiradi. Bunda "til siyosatining asosiy quroli tilning funksional xususiyatlarini, undagi ayrim tizimlarning rivojlanish darajasini, ozmi-ko'pmi, har tomonlama bilish asosidagina yaratilishi mumkin bo'lgan til to'g'risidagi qonunlar bo'lishi kerak"³. Til siyosatining bunday tushunchasi bizni davlat tomonidan amaldagi tillardan foydalanishni boshqarish va tartibga solish uchun qabul qilingan qarorlarning har qanday shakliga ishora qiladi. Shu bilan birga, dominant roli faqat davlat tiliga beriladi.

Masalan, O'zbekistonda davlat tili sifatida o'zbek tili umumtil hisoblanadi. OAV qonunda belgilangan tartibda yana 7 ta tilda faoliyat olib borishi mumkin. Turli mamlakatlar til siyosatiga turlicha yondashiladi. Ba'zi mamlakatlarda faqat bitta til rasmiy til bo'lishi mumkin, boshqalarida esa bir nechta tillar rasmiy til sifatida tan olingan. Masalan, MDH davlatlarida rus tili ikkinchi davlat tili sifatida faqat Belarus Respublikasida tan olingan. Konstitutsiyaga ko'ra, rus tili Qozog'iston va Qirg'izistonda rasmiy til hisoblanadi, biroq uning qo'llanishi qonunan ayrim hududlarda davlat tili foydasiga cheklangan. MDH mamlakatlari til siyosatining xususiyatlaridan biri rus tilini millatlararo muloqot tili sifatida saqlab qolinganidir.

A.Shveyserning fikricha, til siyosati nafaqat ma'lum bir tilning mavjud holatini saqlab qolishga qaratilgan, balki zamon va jamiyat talabi: milliy tiklanish, uni o'zgartirish uchun ham amalga oshiriladi. A.Shveyser tilshunos sifatida til siyosati sohasida tadqiqotlar bilan shug'ullanib, uni til normalarini o'zgartirish yoki saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui deb hisoblagan. Uning ta'rifiga ko'ra, til siyosati – bu til normalarini o'zgartirish yoki saqlab qolish maqsadini ko'zlovchi hokimiyat va/yoki davlat muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va qonunchilik hujjatlari tizimidir.

Ushbu chora-tadbirlar quyidagilarga qaratilgan bo'lishi mumkin:

- a) til me'yorlarini o'zgartirish. Masalan, maktablarda majburiy til o'rganishni joriy etish yoki imloni standartlashtirish;
- b) til me'yorlarini saqlash. Masalan, ozchilik tillarini himoya qilish yoki dialektlarni saqlash.

Til siyosati qonunlar va me'yoriy hujjatlar orqali davlat tomonidan, shuningdek, o'z tashabbuslarini taklif qila oladigan davlat institutlari tomonidan boshlab berilishi mumkin. Davlat tilini saqlash, ko'p tillilikni qo'llab-quvvatlash, hayotning turli sohalarida tildan foydalanishni rag'batlantirish til siyosatining yorqin misollaridir.

Til siyosati til rivojlanishiga, ijtimoiy hayotda tildan foydalanishga, shuningdek, tillar va madaniyatlarga bo'lgan munosabatga ta'sir qiladi⁴. Masalan, o'tgan asrning boshlarida Turkiya

² Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика: учебник. – Москва: Российский государственный гуманитарный университет, 2001. – С. 263.

³ O'sha manba. – 264-b.

⁴ Швейцер А. Д. Современная социоллингвистика. 4-е изд. – М., 2012; Швейцер А. Д. Языковая политика и языковые конфликты в современном мире. – М., 2014.

Respublikasida amalga oshirilgan til siyosati ushbu ta'rifga mos keladi⁵. Buni hozirgi turk tilining mavqeyi bilan baholash mumkin. Ulardagi tajribaga ko'ra tildagi xorijiy, asosan, arabiy va forsiy so'zlar sof turkcha muqobiliga almashtirilgan va bunda OAV – matbuot (gazeta, jurnal, nashr ishlari), televideniye, radio katta rol o'ynagan. Shu o'rinda aytish lozimki, tilning sofligi uchun kurashda jadidlar ham ushbu usuldan (OAVdan) foydalanishgan. Lekin yana bir jihat borki, ko'plab ruscha o'zlashmalarning kirib kelishida aynan jadid namoyondalarining nashrlari rol o'ynagan. Xususan, stakan (istog'on), politsiya (polisiyski), stol-stul (ustol-ustul) va h.k. so'zlar ilk bor jadidlarning asarlarida qo'llangan⁶.

Til siyosati uning yaxlitligini tashkil etuvchi qator yo'nalishlarga ega ekanligi bilan xarakterlidir. Ular orasida: davlat tillarini tanlash va o'rnatish; terminologiyani ishlab chiqish, unifikatsiyalash va standartlashtirish; alifbo va imloning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish savodsizlikni bartaraf etishga olib keladi; mamlakatning hududiy birliklariga (shaharlar, ko'chalar, maydonlar va boshqalar) nom berish va nomlarini o'zgartirish masalasi. Muammoning mohiyati shundan iboratki, muayyan tilni o'zlashtirish til siyosatining amaliy shakli bilan tavsiflanadi. Til inson mavjudligi va jamiyat avtonomiyasi o'rtasida vositachi bo'ladi.

Til siyosatining mazmunini bir qancha omillar aks ettiradi. Ular orasida quyidagilar mavjud:

- “1) xalqlarning lingvistik va siyosiy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari;
- 2) huquqiy hujjatlar va norasmiy vaziyatlar asosida tillarning amal qilishi;
- 3) milliy masalani institutsional va uslubiy jihatdan hal etish;
- 4) qadriyatlar tizimi sifatida davlat manfaatlarini amalga oshirish”⁷.

Albatta, til siyosatini amalga oshirish qonuniy asos va kafolatlarni yaratish bilan cheklanib qolmaydi. Ma'muriy va maktab tizimi bilan bir qatorda ommaviy axborot vositalari ham bunda asosiy institutlardan biri hisoblanadi. J.Blummert boshchiligidagi olimlar guruhi bu borada mediani nafaqat axborot tarqatish, balki me'yorlarni belgilash funksiyalariga urg'u beradi⁸. Qolaversa, F.Xolmas tomonidan ajratib ko'rsatilgan til siyosatining “korpusni rejalashtirish” (tilning ichki rivojlanishini (grammatika, leksika va boshqalar) nazarda tutadi) va “nufuzini rejalashtirish” (tilning jamiyatdagi tashqi yoki funksional rivojlanishini nazarda tutadi)⁹ qismlarining har ikkida ham OAV faol ishtirok etadi.

⁵ [Akademiya rahbari: Yagona turkiy alifbo ma'naviy birlik uchun muhim](https://uza.uz/uz/posts/akademiya-rahbari-yagona-turkiy-alifbo-manaviy-birlik-uchun-muhim). URL: <https://uza.uz/uz/posts/akademiya-rahbari-yagona-turkiy-alifbo-manaviy-birlik-uchun-muhim> 655403 (murojaat sanasi: 30.08.2023).

⁶ Bu haqda qarang: Tog'ayev T. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi. – T.: Nodirabegim, 2020. – 136 b.; Halimova S. Ubaydulla Asadullaxo'jayev va “Sadoi Turkiston”. – T.: Universitet, 2021. – 78-89-b.

⁷ Sadinova N. “Davlat tili haqida”gi qonun va davlat tilida ish yuritish muammosi. – T.: Ma'naviyat, 2020. – 307 b.

⁸ Blommaert J., Kelly-Holmes H., Lane P., Leppänen S., Moriarty M., Pietikäinen S., Piirainen-Marsh A. Media, multilingualism and language policing: an introduction // Language policy. – 2009. – Volume 8. – P. 203–207. – URL: <https://link.springer.com/article/10.1007/s10993-009-9138-7>. (murojaat sanasi: 30.08.2023).

⁹ Coulmas F. Language planning: communication demands, public choice, utility. In: Sociolinguistics: The Study of Speakers' Choices. – Cambridge University Press, 2013. – P. 203-224. – URL: <https://www.cambridge.org/core/books/abs/sociolinguistics/language-planning-communication-demands-public-choice-utility/818E7ACB6223AC86169BEF888BB2228A>. (murojaat sanasi: 30.08.2023).

Ommaviy axborot vositalarining milliy til siyosatining amalga oshirilishi, jumladan, uning doirasida “Davlat tili haqida”gi qonun ijrosining ta’minlanishida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- til siyosatining asosiy g’oyasini ifoda etadi;
- davlat tili ustuvorligini ta’minlaydi;
- hukumat qarorlari haqida axborot beradi va sharhlaydi;
- adabiy til me’yorlariga amal qilish namunasi bo’ladi va uni mustahkamlaydi;
- davlat, mutaxassislar va jamoatchilik o’rtasida o’zaro fikr almashish maydoni vazifasini

bajaradi.

OAV yozma va og’zaki nutq shaklida faoliyat olib borar ekan, tabiiy ravishda qat’iy qoidalar asosida tartibga solib turilishga moyildir. Buning huquqiy asosi esa “Davlat tili haqida”gi qonun va qonunosti hujjatlarda mavjud. Mazkur qonun ijrosida ommaviy axborot vositalarining o’rnini tahlil qilish juda muhim, bu til takomili yo’lidagi o’ziga xos xususiyatlar va kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Buning uchun O’zbekiston Respublikasida o’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirishga qaratilgan islohotlarning samaradorligini OAV va Internet tarmog’ida yoritilishiga e’tibor qaratamiz.

1.1-jadval.

2019-2025-yillarda davlat tili mavzusining

O’zbekiston Respublikasi bosma ommaviy axborot vositalarida yoritilishi statistikasi¹⁰

Yillar	Gazeta		Jurnal (axborotnoma, bulleten)	Jami
	markaziy	Hududiy		
2019	887	314	91	1292
2020	794	266	88	1148
2021	1103	327	105	1535
2022	905	301	73	1279
2023	710	248	69	1027
2024	744	198	76	988

1.1-jadvalda aks etgan dinamika mavzuga doir chiqishlar soni 2021-yilda yuqori bo’lganini ko’rsatadi. Bu bevosita 2019-yilda boshlangan ochiqlik siyosati, jamiyat a’zolarining ijtimoiy faollik, milliy o’zlikka intilishi kuchaygan davrga to’g’ri keladi. 2022-2024-yillardagi ko’rsatkichlarda esa mavzuga nisbatan qiziqish saqlanib qolgani, lekin nashrlar tomonidan ko’rsatiladigan faollik darajasi tushganini kuzatamiz. Bunga bosma nashrlar faoliyatidagi inqirozlar, jumladan, gazeta-jurnallarning tugatilishi, davriyligining kamayishi ham sabab sifatida olinishi mumkin.

1.2-jadval.

¹⁰ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo’yicha markaz ma’lumotlari (30.10.2025-yil).

2019-2025-yillarda davlat tili mavzusining O'zbekiston Respublikasi elektron ommaviy axborot vositalarida yoritilishi statistikasi¹¹

Yillar	Telekanallar		Radiokanallar		Veb-saytlar	Jami
	Markaziy	Hududiy	Markaziy	hududiy		
2019	21	17	7	4	2111	2160
2020	27	13	9	4	2513	2566
2021	44	19	14	7	2891	2975
2022	32	11	10	5	2113	2117
2023	16	14	6	3	2471	2510
2024	11	9	7	2	1805	1834

Elektron ommaviy axborot vositalari bo'yicha ham ko'rsatkichlar deyarli bir xil dinamikaga ega. Eng ko'p e'lon qilingan materiallar 2021-yilda qayd etilgan. 2024-yilda esa ko'rsatkichlar 2019-yilga nisbatan ham ancha past. Bu yerdagi boshqa e'tiborli holat veb-saytlarda e'lon qilingan materiallarning boshqa ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda favqulodda ko'pligi. Mazkur holat internet eng katta axborot, targ'ibot va muloqot maydoniga aylangani, bundon buyon "Davlat tili haqida"gi qonunning hayotga tatbiq etilishida bosma OAV parallel ravishda ushbu platformadan yanada kengroq foydalanishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan "Yangi O'zbekiston" va "Ma'rifat" gazetalarida 2019-2024-yillar davomida til masalalariga bag'ishlangan jami 63 ta muammoli maqola chop etilgan bo'lib (1.1-rasm), ularning aksariyatida davlat tilini rivojlantirish bo'yicha zalvorli xulosa va takliflar berilgan. Jumladan, "Yangi O'zbekiston" gazetasida Isajon Sultonning "Tilimiz – tariximiz, bugunimiz va kelajagimizdir"¹² nomli maqolasi chop etilgan bo'lib, unda mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari, davlat tilining ahamiyati va o'rni to'g'risida fikr boradi. "Ona tilimizning sofligini asrash o'z qo'limizda"¹³ mavzusidagi maqolada esa Vazirlar Mahkamasining davlat tilini rivojlantirish departamenti tomonidan hududlardagi joy nomlari holati o'rganib chiqilgani, natijada bir talay ko'cha va joy nomlari hech bir ma'noni anglatmasligi, til qoidalariga zid bo'lgan so'z birikmalarining mavjudligi, ba'zi atamalar geografik joylashuvi, tabiati, aholisi va boshqa o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olmagan holda zo'raki iste'molga kiritilgani aniqlangan. Mazkur gazeta davlat tilini rivojlantirish masalalariga doimiy e'tibor qaratmoqda.

"Ma'rifat" gazetasida til masalalari mavzusi mavsumiy emas, doimiylik, muntazamlik tamoyiliga amal qilib yoritilgan. Hatto yil davomida gazetaning bir necha soni til muammolari va ularning yechimlari bo'yicha takliflarga bag'ishlangan. Yorqinjon Odilov hamda Inomjon Azimovning "Til siyosatini muvofiqlashtirib boradigan muassasa zarur"¹⁴, Baxtiyor Mengliyevning "Davlat buyurtma berdi, nega natija sezilmayapti?"¹⁵ kabi maqolalar fikrimizga dalil bo'la oladi.


¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha markaz ma'lumotlari (30.10.2025-yil).

¹² Sulton I. Tilimiz – tariximiz, bugunimiz va kelajagimizdir // Yangi O'zbekiston. – 2020. – 18 mart.

¹³ Xidirova B. Ona tilimizni asrash o'z qo'limizda // Yangi O'zbekiston. – 2020. – 10 mart.


¹⁴ Odilov Yo., Azimov I. Til siyosatini muvofiqlashtirib boradigan muassasa zarur // Ma'rifat. – 2019. – 25 yanvar.

¹⁵ Mengliyev B. Davlat buyurtma berdi, nega natija sezilmayapti? // Ma'rifat. – 2020. – 2 dekabr.



1.1-rasm. 2019-2024-yillarda “Yangi O‘zbekiston” va “Ma‘rifat” gazetalarida davlat tili mavzusida e‘lon qilingan materiallarning umumiy soni

Ta’kidlash lozimki, yuqorida umumiy ko’rsatkichlardan chiqarilgan internet saytlarining ommabopligi haqidagi xulosalar “Yangi O‘zbekiston”, “Ma’rifat” gazetolari va “kun.uz”, “daryo.uz” saytlari solishtirilgan xususiy holatda o‘z tasdig‘ini topmadi (1.2-rasm). Tanlangan gazetalarda 2019-2024-yillarda jami 296 ta, saytlarda 248 ta material e’lon qilingan. Aynu mavzuni yoritishda bosma ommaviy axborot vositalari faollikni saqlab qolgan. Lekin bu bosma nashrlarning global tarmoq imkoniyatlaridan foydalanishi zarurligi haqidagi mulohazalarni inkor etmaydi.



1.2-rasm. 2019-2024-yillarda “kun.uz” va “daryo.uz” saytlarida davlat tili mavzusida e‘lon qilingan materiallarning umumiy soni

Mazkur raqamlar hukumatning “Davlat tili haqida”gi qonun ijrosidagi faolligi hamda jamoatchilikning mazkur mavzuga bildirayotgan qiziqishini yaqqol namoyon etadi. Keyingi bobda janrlar kesimida amalga oshirilgan tahlillar ushbu pozitsiyalarni yanada oydinlashtiradi. Aslida o‘zbek tilida nashr etilgan har bir material “Davlat tili haqida”gi qonun ijrosini ta’minlaydi. Negaki bu jarayonda til siyosatining asosiy g‘oyasini ifoda etish, davlat tili ustuvorligini ta’minlash vazifalari bajariladi.

Ammo tegishli qonun va qonunosti hujjatlari ijrosida paysalga solish holatlarining mavjudligi, o‘zbek tili nazariyasi va amaliyotida yechimini kutayotgan savollarning to‘planib borayotgani mazkur jarayonlarda ommaviy axborot vositalari o‘zining ayrim vazifalari, jumladan, adabiy til me‘yorlariga amal qilish va uni mustahkamlash ishida oqsoqlanishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbek-turkiy tili madaniyatimiz, milliy merosimizning eng qimmatli va ayni paytda e‘tibortalab qismidir. O‘zbek tili dunyodagi eng rivojlangan va eng boy tillardan biri bo‘lib, qadimiy yozma an‘anaga ega. Til jonli, chinakam faoliyat ko‘rsatuvchi tizim sifatida doimiy harakat va o‘zgarishdadir. So‘nggi o‘n yillikdagi ommaviy va yuqori sifatli matbuot lug‘atidagi yangi hodisalarni tahlil qilish jarayonida til evolutsiyasining umumiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Jumladan, 1990-yillar oxirida til dinamikasining o‘shish sur‘ati, birinchi navbatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va psixologik munosabatlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq tarzda kechdi. Ommaviy va sifatli matbuot tilida, ayniqsa, uning lug‘aviy sohasida yangilanish bugungi kunda juda faol va sezilarli darajada davom etmoqda. Ilgari klassik badiiy adabiyot namunalari, gazeta va jurnalistik uslubni qat‘iy tartibga solish bilan qo‘llab-quvvatlangan an‘anaviy me‘yorlar ko‘zdan g‘oyib bo‘lmoqda.

Aytish mumkinki, tarixiy damlarda jurnalistikaning roli ortib borayotganligi munosabati bilan badiiy adabiyot emas, balki matbuot tobora yangi lingvistik didning “trendchi”, “tarbiyachisi”ga aylanib bormoqda. Afsuski, yangi til birliklarining paydo bo‘lishi, variant shakllari doirasining kengayishi tufayli eski me‘yor o‘zining daxlsizligini yo‘qotadi. Binobarin, adabiy me‘yor, uning variantlari, me‘yordan chetga chiqish masalasini bugungi matbuot muammolari kontekstida hal etish bugungi kun uchun nihoyatda muhim va dolzarbdir.

Shunday ekan bugungi kunda milliy nutq madaniyati saviyasini oshirish, axborotning to‘g‘ri uzatilishi, matnni tushunishning adekvatligini ta’minlash har qachongidan ham muhim va zarurdir.

Oxirgi paytlarda OAV tili juda o‘zgarib, bir-biriga qarama-qarshi, noaniq manzarani yuzaga keltirdi, bu esa sinchiklab, puxta va batafsil izlanishni, chuqur tahlilni talab etadi. Zamonaviy ommaviy va sifatli matbuotning ijtimoiy-lingvistik xususiyatlarini tahlil qilib, ularni taqqoslab, o‘rganilayotgan davrga xos bo‘lgan bir qator muhim o‘zgarishlarni (kalkalash, jargonlar, varvarizmlar, so‘zlashuv lug‘ati) ko‘rish va ajratib ko‘rsatish mumkin.

Biz amalga oshirayotgan tadqiqot mavzusining dolzarbligi bir necha holatlar bilan belgilanadi. Xususan, zamonaviy matbuotda ro‘y berayotgan til o‘zgarishlari jarayonlarining kengligi va ko‘lami, til me‘yorlarining harakatchanligi va o‘zgaruvchanligi, uni tartibga solish, qonuniylashtirish zarurati, filolog-tilshunoslar, adabiyot ixlosmandlari jamiyati vakillari, til softligi uchun kurashchilar tomonidan matbuotda nutq va lingvistik xulq-atvor madaniyati muammosiga e‘tibor kuchayayotgani.

Bugungi kunda o'zbek adabiy tili, xususan, matbuot tili, nostandart nutq elementining jiddiy bosimini boshdan kechirmoqda. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, alifbo masalasida qonun o'z kuchini to'la bajara olgani yo'q, shuningdek, imloviy savodsizlik, bilingvizm va buning yozma nutq me'yorlariga salbiy ta'siri.

Ikkinchidan, o'zlashma oqimi (asosan Yevropa tillaridan), bunday so'zlarning asossiz va faol ishlatilishi, jumladan moliya va diplomatiya sohasida, nazoratsiz qolgan xususiy telekanal, matbuot nashrlarida ko'zga tashlanmoqda.

Uchinchidan, rasmiy-idoraviy uslub matnlarining yangi qoidalari, tendensiyalari va qonunlarini baholashning yagona mezonlari yo'qligi ham muammodir. Ayrim mutaxassislar o'tmishdagi an'anaviy me'yorga e'tibor qaratib, tilning lug'atidagi zamonaviy o'zgarishlar uning "ekologiyasini" buzadi, o'zbekcha so'zni qadrsizlantiradi, butun til tizimining tanazzuliga va yo'qolishiga olib keladi¹⁶, deb hisoblaydi. Boshqa bir qarash tarafdorlari esa tildan foydalanishdagi har qanday cheklovlardan voz kechib, "og'zaki erkinlikni" olqishlaydi va qabul qiladi¹⁷. Ta'kidlash joizki, zamonaviy OAV tilining xususiyatlarini tahlil etish, faqat an'anaviy me'yor, tamoyil hamda til qonuniyatlarini puxta o'zlashtirgan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Bugungi matbuot tilining individual o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash amaliy muhim vazifadir, chunki OAV maqsadi va imkoniyatlarini noto'g'ri tushunish unga bo'lgan talablarning pasayishiga olib keladi. Shuning uchun rasmiy-idoraviy matnlar, zamonaviy o'zbek ommaviy va yuqori sifatli matbuoti lug'atining holati, unda faol sodir bo'layotgan o'zgarishlarni obyektivlik, tarixiy maqsadga muvofiqlik nuqtayi nazaridan baholash hamda tavsiyalarni ishlab chiqish uchun diqqat bilan o'rganish va yoritishni talab qiladi. Bu ishning ham ilmiy, ham amaliy jihatdan dolzarbligini tushuntiradi va keyingi tadqiqotlar uchun istiqbollarni ochadi.

Bir qator rasmiy-idoraviy hujjat matnlari, mahalliy nashrlarning lug'atini o'rganish asosida bugungi ommaviy va sifatli matbuotdagi faol jarayonlar haqida yaxlit tushuncha hosil qilish mumkin. O'zbek tilining lug'atidagi o'zgarishlar, leksik transformatsiyalar jamiyat hayotidagi tarixiy o'zgarishlar fonida til taraqqiyotining ichki manbalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi. Bu masalani o'rganish mahalliy tilshunoslar asarlarida allaqachon o'z o'rnini topgan, ammo zamonaviy fan rasmiy-idoraviy uslub hujjatlari, matbuotdagi til o'zgarishlari jadal jarayonining barcha qirralarini qamrab ololmaydi. Shu sababli "Davlat tili haqida"gi qonun ijrosida ommaviy axborot vositalarining o'rni hozirgi kundagi o'ziga xos va xarakterli masalalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика: учебник. – Москва: РГГУ, 2001. – С. 263-264.
2. Швейцер А. Д. Современная социоллингвистика. 4-е изд. – М., 2012.
3. Швейцер А. Д. Языковая политика и языковые конфликты в современном мире. –

¹⁶Musayeva F. Tilimizni mayna qushdan asraylik! – URL: <https://uza.uz/uz/posts/tilimizni-mayna-ushdan-asraylik-18-05-2020> (murojaat sanasi: 10.08.2024).

¹⁷Sadullayeva M. Davlat tilining ijtimoiy-siyosiy jarayondagi o'rni. – URL: <https://yuz.uz/uz/news/davlat-tilining-ijtimoiy-siyosiy-jarayondagi-orni> (murojaat sanasi: 10.08.2024).

M., 2014.

4. Coulmas F. Language planning: communication demands, public choice, utility. In: Sociolinguistics: The Study of Speakers' Choices. – Cambridge University Press, 2013. – P. 203-224.
5. Blommaert J., et al. Media, multilingualism and language policing: an introduction // Language policy. – 2009. – Volume 8. – P. 203–207.
6. Sadinova N. “Davlat tili haqida”gi qonun va davlat tilida ish yuritish muammosi. – T.: Ma’naviyat, 2020. – 307 b.
7. Tog‘ayev T. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi. – T.: Nodirabegim, 2020. – 136 b.
8. Halimova S. Ubaydulla Asadullaxo‘jayev va “Sadoi Turkiston”. – T.: Universitet, 2021. – 78-89-b.
9. Sadullayeva M. Davlat tilining ijtimoiy-siyosiy jarayondagi o‘rni. – URL: yuz.uz.